



Toshkent xattotlik maktabi va uning vakillari

А.Абдуллаев

Тошкент ислом институти

“Тиллар” кафедраси ўқитувчиси

Abstract: Scientists and calligraphers left an indelible mark on the history of the Tashkent calligraphy school. By the second half of the XIXth century, due to certain economic and political reasons, Tashkent began to become a cultural center. The development of school, education, art and literature prepares the ground for the development of artistic calligraphers engaged in calligraphy in their own way. Tashkent calligraphers organize the sixth calligraphy school of Shahmurad Kotib of Central Asia. The leader of the sixth calligraphy school was Shahmurad Kotib.

Key words: Movarounnahr, calligraphy, Shahmurad Kotib, Shoshi.

Annotatsiya: XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, ma'lum iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko'ra, Toshkent ham madaniy markazga aylana boshlaydi. Maktab, maorif, san'at va adabiyotning rivoj topishi bu erda ham o'ziga xos yo'lda husnixat bilan shug'ullanuvchi san'atkor xattotlarning etishib chiqishiga zamin hozirlaydi. Toshkent xattotlari O'rta Osiyoning Shohmurod Kotib boshliq oltinchi husnixat maktabini tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, xattotlik, Shohmurod Kotib, Shoshiy

O'rta Osiyo xattotlik san'ati taraqqiyoti tarixiga bir nazar solsak, VII–X asrlarda Arab xalifaligining markaziy shaharlari – Makka, Kufa va Basrada yaratilib, keyinchalik xalifalikning boshqa hududlariga tarqalgan xat turlaridan foydalangan holda Movarounnahr xattotlik maktabi vujudga kelganini bilib olamiz. Ahmad ibn Umar Ash'as Abu Bakr



Samarqandiy (XI asr), Ahmad Tabibshoh Movarounnahriy (vafoti 1215 yil), Ali Banokatiy (XIII asr), Jamshid Shoshiy (XIV asr) kabi xattotlar ushbu maktab vakillari sifatida dong taratganlar.

XIV–XV asrlarda ilm-fan, madaniyat va san’atning barcha sohalarida bo’lgani kabi xattotlik san’atida ham misli ko’rilmagan yuksalish kuzatildi. SHu davrdan boshlab O’rta Osiyoning turli mintaqalarida bir necha xattotlik maktablari paydo bo’ldi.

Yozuv va kitob ko’chirishga e’tiborning ortishi tufayli Movarounnahr hududida bir necha xattotlik maktablari vujudga keldi. Ular:

1. Buxoro xattotlik maktabi;
2. Xorazm (Xiva) xattotlik maktabi;
3. Farg’ona (Qo’qon) xattotlik maktabi;
4. Samarqand xattotlik maktabi;
5. Toshkent xattotlik maktabi.

Hind xattotlik maktabi esa, asosan Tabriz, Hirot, Buxoro va Samarqand xattotlik maktabi ta’sirida taraqqiy etgan.

XV asrda Temuriylar sulolasi hukmdorlarining qo’llab-quvvatlashlari bilan vujudga kelgan Hirot xattotlik maktabi Sultonali Mashhadiy (1437–1520), Darvesh Muhammad Taqiy Hiraviy (XV asrning birinchi yarmi), Abduljamil Kotib (vafoti 1505/1506 yil) kabi vakillari bilan elga tanilgan. Amir Temur davrida Mavlono SHamsuddin Munshiy, sangtarosh va xattot Oltun juda mashhur bo’lgan.

Alisher Navoiyning shaxsiy kutubxonasida 11 ta yirik xattot san’atkorlar «Xattotlar sultoni» Sultonali Mashhadiy (1437–1520), «nasta’liq» xatini ixtiro qilib, uni san’at darajasiga ko’targan Mir Ali Tabriziy (1330-1405), Darvesh Muhammad Taqiy Hiraviy (XV asrning birinchi yarmi), Abduljamil Kotib (vafoti 1505/1506 yil), Darvesh Muhammad Toqiy (XV asrning ikkinchi yarmi— XVI asr boshlari) kabi vakillari samarali ijodlari bilan elga tanilgan.



Ibrohim ibn Shohruh, Boysungʻur Mirzo, Badiuzzamon Mirzo kabi Temuriy shahzodalar ham xattotlikka homiylik qilish bilan birga oʻzlari bu sanʼat turi bilan shugʻullangan. Zahiriddin Muhammad Bobur esa yangi xat va alifbo “Xatti Boburiy” ixtirochisidir. Temuriy shahzodalardan Boysungʻur Mirzo (1397—1433) esa oʻz zamonasining etuk olimlaridan edi. U Hirotida tashkil qilgan kutubxonada musavvir, naqqosh va boshqa ustalar bilan bir qatorda 40 dan ortiq xattotlar qoʻlyozma kitoblar tayyorlash, yaroqsiz holga kelganlarini taʼmirlash bilan mashgʻul boʻlgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, maʼlum iqtisodiy va siyosiy sabablarga koʻra, Toshkent ham madaniy markazga aylana boshlaydi. Maktab, maorif, sanʼat va adabiyotning rivoj topishi bu erda ham oʻziga xos yoʻlda husnixat bilan shugʻullanuvchi sanʼatkor xattotlarning etishib chiqishiga zamin hozirlaydi. Toshkent xattotlari Oʻrta Osiyoning Shohmurod Kotib boshliq oltinchi husnixat maktabini tashkil qiladi. Toshkentda ham husnixat taraqqiyoti maʼlum darajada toshbosma orqali kitob nashr qilish bilan bogʻliq boʻlgan. Sanab oʻtilganlar orasida badiiy jihatdan yuksak taraqqiyot bosqichiga koʻtarila olganlari Hirot, Buxoro va qisman Fargʻona (Qoʻqon) xusnixat maktablaridir. **Toshkent xattotlik maktabi** tarixida olimlar va xattotlar oʻchmas iz qoldirishgan. Chunonchi, Taftazoniyni shogirdi Jamshid Shoshiy (XIV asr) 1358 yilda Mahmud Zamaxshariyning “Kashshof” asarini nasx xati bilan koʻchirgan. Hozir bu nodir qoʻlyozma Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Bundan tashqari, quyidagi xattotlarni ham qayd etish lozim:

Muhammad Shayx Toshkandiy Sayidxoʻja oʻgʻli. Nasx xatida goʻzal yozuvchi, mashhur xattotlardan. Shayx Toshkandiy Davlatshoh ibn Aloiddin Baxtishoh Samarqandiyning “Tazkirai Davlatshoh” nomli kitobini nasx xatida koʻchirgan¹. Mavlono Soniy Pirmuhammad Toshkandiy. XVI asrning adib, shoir va xattotlaridan boʻlib, oʻz davrida sheʼriyatning turli janrlari bilan shugʻullangan. Shuning uchun hamda 1576 yilda

¹ Давлатшоҳ. Тазкирай Давлатшоҳий, ЎзФАШИИ, инв. № 9272. - Б. 237.



Alisher Navoiyga bag‘ishlab “Muammoi Mirhusayn”ga fors tilida mukammal sharh² yozgan va uni go‘zal nastaliq xati bilan ko‘chirgan³.

Mavlono Obidiy Shoshiy. Ulug‘ xattotlardan, nastaliq xatining ustodi, Mir Ali Tabriziy shogirdlaridandir.

Muhammad Yunus Toib Muhammad Amin o‘g‘li. Toshkentda sobiq Tinchob mahallasida tug‘ilib, Qo‘qonda o‘qigan. Yunus Toib bilimli, shoir, tarixchi ham xattot bo‘lib, ko‘p umri Qo‘qonda o‘tkan. 1907 yillarda Qo‘qonda vafot etgan. 1894 yilda Abdurahmon Jomiyning “Jilo ur ruh” nomli “shiniya” qasidasiga javob tariqasida “Anvor al-bavoriq” nomida qasida yozib, go‘zal xatda o‘z qo‘li bilan ko‘chirganligi taxmin qilinadi (inv. № 6696)⁴.

“Tarixi jadidai Toshkand” muallifining aytishicha, ko‘p kishilarning vafotiga tarix va marsiyalar yozgan. Muhammad Hodiy, toshkentlik Akmalxon shular jumlasidandir⁵.

Muhammad Saidxo‘ja Asqarxo‘ja o‘g‘li. Nasx va nastaliq xatlarida mahoratli xattotlardan. 1867 yildan boshlab Toshkentda matbaalar qurila boshlagan paytda matbaaga dastlab kitob qilgan Saidxo‘ja xattot bo‘lgan. Toshkentda birinchi marta katta hajmli kitoblardan Abdurahmon Jomiyning “Favoidi Ziyoiya” kitobi uning tomonidan ko‘chirilib, bosilib chiqqan. Boshqa qo‘lyozmalari va bosilgan kitoblari ko‘p. Muhammad Saidxo‘ja oktyabr to‘ntarishidan ilgariroq vafot etgan⁶.

Muhammad Usmon Kotib Toshkandiy. 1856 yilda Namangan shahrida tug‘ilgan. Muhammad Sharif Toshkentga ko‘chib kelganda Usmon 6 yoshda bo‘lib, Muhammad SHarif yolg‘iz o‘g‘lining tarbiyasi uchun qo‘lidan kelgancha harakat qildi. Usmon kotib juda kamtar, ta‘magirlikni yoqtirmaydigan, mansab ishlariga aralashmagan, shoirtabiat, ulfatiy kishi edi⁷. Xattot arab va fors tillarini mukammal bilgan, shu tildagi kitoblarga

² Соний Мухаммад, Шарк, ЎзФАШИ, инв. № 1863. – Б. 188.

³ Восифий. Бадоеъ ул вақоеъ, ЎзФАШИ, инв. № 1093. – Б. 10, 25, 26, 108, 109, 118, 119, 120, 248.

⁴ Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1971. – Б. 145.

⁵ Мухаммад Солих, Тарихи жадидаи Тошкент, II том. – Б. 336.

⁶ Жомий “Фавоиди Зиёия”, ЎзФАШИ, инв. № 7609.

⁷ Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1971. – Б. 145.



sharhlar yozgan, ahamiyatga ega bo'lgan o'rinlarda izoh qoldirgan, chiroyli xati bilan yozib qo'ygan. Umar Xayyom, Navoiy, Fuzuliy va Bedil kabi shoirlarning she'rlarini yoddan bilgan va chiroyli qilib yozgan. Usmon kotib xatdan dars ham bergan. Xattot 1935 yilda 79 yoshida vafot etgan.

Muhammad Azim Muznib Ro'zimuhammad Toshkandiy o'g'li. Nasx va nastaliq xatida zebo yozuvchi kotib, ham shoir. 1912 yilda o'zbek tilida huusnixat qoidalarini o'z ichiga olgan "Mir'odi ta'lim", ya'ni ta'lim ko'zgusi nomli risola yozib, nasx va nastaliq xatlarining qoidalarini ko'rsatgan⁸.

Sirojiddin Maxdum Sidqiy Mirzohid o'g'li Xandoyliqiy. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlaridagi o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri. Toshkentda dastlabki bosilgan nashrlarda taxallusini SHEvan, SHavkat deb, keyingi vaqtlarda Sidqiy taxallusi bilan shuhrat qozongan. Sirojiddin Toshkent viloyatining Xondayliq qishlog'i (hozirgi Bo'stonliq tumani)da 1884 yilda tug'ilib, 1834 yilda Parveztepa qishlog'ida vafot etadi⁹.

Xulosa qilib aytganda, tarixdan ayonki, hukmdorlar ilm-fan va madaniyatga homiylik qilgan yurtda hamisha ma'naviyat yuksalgan, rivoj topgan. Shu jihatdan Amir Temur va uning avlodlari ilm-fan, madaniyat va adabiyotga homiylik qilib, o'zlari ham bu borada ulkan meros qoldirgani hech kimga sir emas. Hazrat Navoiy o'z asarida yigirma ikki temuriy shahzoda (Xalil Sulton, Mirzo Ulug'bek, Boysunqor Mirzo, Abulqosim Bobur, Sulton Mas'ud Shoh Barib Mirzo, Abdullatif Mirzo, Xusayn Boyqaro va boshqalar) she'r va musiqaga oshno bo'lganini e'tirof etgan.

Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan toshkent xattotlari

Badalboev Salimjon Sobirjon o'g'li 1942 yil 17 fevralda Toshkent shahrida tavallud topganlar. Otasi Sobirjon Zokirjon o'g'li. Bobosi Zokirjon Baroqxon va Abulqosim madrasalarida dars bergan. Otasi Sobirjon arab tili, fors tili va fiqh ilmini yaxshi egallagan,

⁸ Мухаммад Азим, "Миръод таълим", Тошкент, ЎзФАШИ, № 7655, 1-2-бетлар.

⁹ Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон ССР "Фан" нашриёти, 1971. – Б. 54.



shuningdek xatlari juda ham go'zal bo'lgan. Xattot Salimjon yoshlik chog'laridanoq otasining go'zal xatini ko'rib, xattotlik san'atiga muhabbati uyg'ongan.

1964-1970 yillarda Toshkent Davlat Universitetining filologiya fakultetida tahsil olgan. Ustozi mohir xattot Hasanxon Nizomovdan universitetda o'qib yurgan kezlarda xat san'ati sirlarini o'rgangan. Xattotlik san'ati bo'yicha pedagogik faoliyati 1989 yil Davlat tili haqidagi qonun qabul qilingandan so'ngdan boshlangan va arab xati asosidagi eski o'zbek yozuvidan maktab, litsey va institutlarda xattotlik san'atidan ustozlik qilgan. Toshkent Davlat Universitetining tarix fakultetida, 1995 yildan 2001 yilgacha Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutida, 1996 yildan 2013 yilgacha "Misr Ta'limi va Madaniyati markazi" da, 2010 yildan "Kamoliddin Behzod" nomidagi milliy rassomchilik va dizayn instituti talabalariga "YOzuv grafikasi" va "Badiy xattotlik" fanlaridan ta'lim berib kelmoqda.

Qur'onni ko'chirishda qo'llaniladigan *nasx* xatini, *suls*, *nasta'liq*, *kufiy*, *devoniy*, *riq'a* va boshqa xat uslublarini ham mukammal egalladi.

1991 yildan hozirgi vaqtga qadar eski o'zbek yozuvi va xattotlikka doir bir qancha qo'llanma va kitobchalar chiqargan. "Nasx xati mashqlari" (1991-yil), "Odobnoma" (1993-yil), "Turkiy guliston yoki axloq" (1994-yil) shular jumlasidandir. 1998-yilda chop etilgan "Alifbo" kitobiga ham mualliflik qilgan. 1999 yil nashrdan chiqqan "Forsiy xat mashqlari" kitobi SHarqshunoslik institutida qo'llanma sifatida foydalanib kelinmoqda. Bulardan tashqari, Respublika matbuotida Xattotlik san'ati tarixiga oid bir qancha maqolalari va xat namunalari bosilib chiqqan.

2001, 2003, 2005, 2007 va 2008 yillarda ustoz Salimjon xattot haqida radio va televideniyada qator ko'rsatuvlar va eshittirishlar olib borilgan. Turkiyaning Istanbul shahrida har uch yilda bir marotaba o'tkaziladigan "Xalqaro xattotlik musobaqasi"da uch marotaba qatnashib, ikki marotaba (2001, 2004) ramziy sovriniga va maxsus sertifikatiga sazovor bo'lgan.



Respublikadagi bir qancha masjid va maqbaralarda xattotning yozuv namunalarini ko'rish mumkin. Jumladan, Umar ibn Xattob, Islomobod, G'oib ota, Ilonli ota, Eski Yunusobod, Hasanboy ota, Do'sjonboy ota yana ko'plab jome masjidlarning yozuvlarini misol qilish mumkin.

2006 yildan buyon O'zbekiston Badiiy Akademiyasi ijodkorlar uyushmasi a'zosi. 2007, 2008, 2009, 2011 va 2012 yillarda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi qoshida tashkil etilgan san'at haftaliklarida "Yuqori badiiy saviyasi va YUksak mahorati uchun" nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan.

2007 va 2009 yillarda "Misr Ta'limi va Madaniyati markazi" tomonidan tashkil etilgan musobaqada O'zbekiston xattotlari orasida ikki marta birinchi o'rinni egallagan.

2009 yil O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Badalboev Salimjonni yuksak va estetik mahorati uchun "Oltin medal" bilan taqdirladi.

2010, 2011 va 2012 yillarda "Badiiy saviyasi va yuksak mahorati uchun" nominatsiyasi bo'yicha diplom va maxsus sovg'alar bilan taqdirlandi. 2012 yil 26 yanvarda Misr davlat Oliy Ta'lim vazirligi "Oltin medal" bilan mukofotlangan.

Habibulloh Solih 1949 yili Tojikistonning Vahsh (Oks) tumanida tug'ilgan. 1968-1973 yillari Buxorodagi Mir Arab madrasasida, 1973-1975 yillarda Toshkentdagi Namozgoh oliy madrasasida, Oliy diniy maktab (hozirgi Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti) da ta'lim olgan.

1975-1982 yillarda O'zbekiston ta'mirlash va loyihalash ilmiy-tekshirish institutida faoliyat yuritib, Markaziy Osiyoning eng yirik tarixiy me'moriy obidalari tiklanishi va ta'mirlanishiga hissa qo'shdi. 1982-1987 yillari Iordaniya universitetining (Ammon) shariat fakultetini bakalavr diplomi bilan tugatdi. 1996 yili Istanbulda o'tkazilgan Xalqaro xattotlar bellashuvida kuchli o'nlikdan o'rin oldi. 1999 yili Lahor (Pokiston)da o'tkazilgan II xalqaro



xattotlar festivalining 2 o‘rin sovrindori va “yangi tarz” kashf qilgani uchun “Parvin qalam”¹⁰ unvoniga sazovor bo‘ldi.

Ajdodlarimiz an‘anasiga ko‘ra Qur‘on yozuvining yangi tarzi kashf qilindi. Bu yozuvni “Naqshin bezak” ko‘rinishi deb yuritilmoqda. Bu yozuvga Bahovuddin Naqshband hazratlari tamal toshini qo‘ygan edilar.

“Hazrati Bahovuddin Naqshband o‘z zamonasida kimhob matolarga naqsh bog‘lashda benazir mahorat sohibi edilar” – deb ta‘rif beradi, Alisher Navoiy.

Bahovuddin Naqshbandning ustozlari Amir Kulol, ko‘zga ko‘ringan shogirdlari esa Mavlono Ya‘qub Charxiy bo‘lgan.

Habibulloh Solih Bahovuddin Naqshbandning mana shu mahoratlarini chuqur o‘rganib, undan ta‘sirlanib, “yangi tarz” kashf qildi. Habibulloh Solih ijod ahliga XXI asrda barcha naqshlar o‘qilishi lozim degan fikrni e‘lon qildi. Ya‘ni “Ziynat va hikmat” uyg‘unligini topishga chaqiradi.

Habibulloh Solih Abdulqahhor Shoshiy, shayx Yusufxon Shokirov, shayx Abdulg‘ani Abdullaev, Ismoil Maxdum, Asrorqul va Otaqul Mavlonqulovlardek fidoyi insonlar xizmatida bo‘lish baxtiga muyassar bo‘ldi. Kunlarning birida Ziyovuddinxon qori, xating durust ekan, deya uni maqtab, Diniy boshqarma kutubxonasiga ro‘yxat tuzish va kitob tashish xizmatiga qo‘ydilar.

Avval Nodirxon Maxsum domla, keyin Abuturob qori rahnamoligida kutubxonada ishladi. U O‘rta Osiyoda ajdodlar kashf etgan, Qur‘onni ko‘chirishda qo‘llaniladigan *nasx*, buyruq va farmonlarni yozishda ishlatiladigan *tavqi*‘, maktubga xos *riqo*‘ va boshqa xat uslublarini ham mukammal egalladi.

1975 yilda Toshkent islom institutini tamomlagach, arabshunos-ta‘mirchi sifatida Buxorodagi Nodir devonbegi xonaqohi va madrasasining peshtoq yozuvlari ta‘mirlanishiga safarbar qilindi. Qadimiy bitiklarning o‘ttiz foizi ham saqlanib qolmagan obidaning tarixiy

¹⁰ “Parvin qalam” яъни, Шарқ юлдузи (XX асрда Машриқдан чиққан юлдуз) унвони бўлиб, ҳар асрда янгилик яратган кишига бериладиган унвон.



asliyati bir oy ichida tiklandi. Birinchi yirik ish, hayrat, tabrik va e'tiroflar Habibulloh Solihni ilhomlantirdi. Navbatda Bibixonim va Tillakori masjidlari, Go'ri Amir majmuasi, keyinchalik Amir Temur muzeyi, Xoja Ahror Valiy masjidi, SHahrisabzning barcha obidalarini turardi. Termiz, Buxoro, Ko'hna Urganch, qo'shni respublikalardagi 60 dan ortiq osori atiqalardagi bitiklar xattot-olimning zakovati, g'ayrati bois qayta tiklandi. ("Har yoshimga bittadan me'moriy obida to'g'ri kelar ekan", deydi u hozir.)

Habibulloh Solih 2002 yilda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan Madaniyat xodimi" ordeni bilan taqdirlandi. Buxoro, Samarqand va Toshkentdagi madrasa va masjidlardagi koshinkorlik yozuvlari ham uning ijodidir.

Mamatov Islom Odinaevich 1968 yil 5 fevralda Tojikistonda tug'ilgan. Otasi Odina Muhammad Ibrohim o'g'li, onasi Anora Mulla Solih qizi. Yoshlik chog'idan xattotlik san'atiga muhabbati bo'lgan. 12 yoshidan ustoz xattot Habibulloh Solihdan go'zal xat sirlarini o'rgana boshlagan.

Dastlab nasxi buxoriy yozuvini o'rgangan. Qur'oni Karimni ko'chirishda qo'llaniladigan *nasx* xatini, *suls, nasta'liq, kufiy, devoniy* va boshqa xat uslublarini ham mukammal egalladi.

Dastlabki ish faoliyatini 1981-1982 yillarda O'zbekiston Ilmiy Ta'mirlash Birlashmasida xattot bo'lib ishlashdan boshlagan. 1982-1984 yillarda 29 Arab maktabida xattotlikdan dars bergan. 1987-1989 yillarda O'rta Osiyo va Qozog'iston Musulmonlari Diniy Idorasining Halqaro bo'limida xattot bo'lib ishlagan. 1989-1993 yillari Buxorodagi Mir Arab madrasasida, 1994-1998 yillarda Toshkentdagi Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutida ta'lim olgan. Toshkent islom institutida ta'lim olayotgan davrida Movarounnahr nashriyotida ishlagan. Toshkent islom institutida, 1994 yildan Abul Qosim madrasasida xattotlikdan dars bergan, hozirda Ko'kaldosh o'rta mahsus islom bilim yurtida faoliyat yuritmoqdalar.



1998 yili Istanbulda o'tkazilgan Xalqaro xattotlar bellashuvida suls xati bo'yicha ishtirok etib, kuchli o'nlikdan o'rin oldi. 1999 yili Lahor (Pokiston)da o'tkazilgan II xalqaro xattotlar festivalida ishtirok etgan.

Moxir xattot 2000 yildan buyon ko'plab mamlakatlarda xizmat safarlarida bo'lib kelmoqdalar. Malayziyadagi o'ndan ortiq masjidlarda, Hindistonning Kiralla shtatidagi, Rossiyaning Qozon shahridagi Qul Sharif jome' masjidida, Bashqirdiston, Orenburg, Chechenistondagi bir qancha masjidlarda, Qozog'istondagi Ostana, Olmata, Chimkent, Kazalinskiy, Aktau, Janavuzen shaharlaridagi bir qancha masjidlarining peshtoqlaridagi yozuvlar moxir xattotning ijodiga mansub. O'zbekistondagi ko'plab masjid, maqbara va qayta ta'mirlangan tarixiy yodgorliklarning inter'er, ekstri'er yozuvlarini yozgan. Xususan Toshkent shahridagi Hazrati Imom kompleksidagi barcha yozuvlar, Minor, Kamolon, Chinor ota va boshqa ko'plab masjidlarining naqshinkor yozuvlari mohir xattotning qalamiga mansubdir.

Tarixsiz kelajak yo'q deganlaridek, o'tmishini chuqur bilgan xalqning istiqboli kafolatlidir. Tarixni anglash orqali insonda hayotni, o'zligini anglash qobiliyati shakllanadi. Ayniqsa, buyuk ajdodlarning vorislari bo'lgan, bashariyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan millatga daxldor inson qalbida o'tmishini o'rganishga ehtiyoj kuchayadi. Uning milliy g'ururi mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan yurt farovonligi uchun kamarbasta bo'lishga chorlaydi. Shu bois, ertangi kun vorislari — yoshlarning yurtimiz va xalqimiz tarixini bilishi ularning etuk inson sifatida ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, san'atkor xattotlarning yozgan xatlari ma'no ifodalash barobarida, kishilarni hayajonga solib, ularga estetik zavq bergan. Kotib qalami bilan yozilgan har bir xat bebaho o'lmas asar hisoblangan. Muhammad bin Husayn at-



Tibiy, Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Xisraviy, Munis Xorazmiy va Ahmad Donishlar shular jumlasidandir¹¹.

Buyuk ajdodlarimiz ilhomlanib, xatning turlari va xilma-xil uslublarini ixtiro qilishgan. Shulardan biri 28 harfdan iborat arab alifbosining dastlabki shakli Nasxi Hijoziy qadimdir. Mushaf Usmon ham mana shu xatda bitilgan. Xalifa hazrati Usmon ibn Affon davriga kelib Qur'oni karim mukammal kitobat qilingan va undan ko'plab nusxalar ko'chirish boshlangan. Mazkur nusxalarning ayrimlari O'rta Osiyo hududlariga keltirilgan.

Shayx Jamoliddin Yoqut Jazoiriy (277 - 397/891-1007y.) ulug' xattot Ibn Muqla shakllantirgan mashhur etti xatni mukammallashtiradi. Shuningdek, u nasx xatining ixtirochilaridan biridir. Undan keyin Ibn Bavvob (vaf.mil. 1022 y.) xam xat uslublariga sayqal berib, 36 xil xat turining 17 xilini yaratgan. Biroq yaratilgan barcha uslublarning asosini etti xildagi xat turi tashkil etgan.

Ular orasida – kufiy, muhaqqaq hamda tavqe' xatlarining o'ziga xos paydo bo'lish tarixi va shakllanish darajasi mavjud.

Yuqorida qayd etilgan xat turlarining har biri maxsus o'rinlarda qo'llanilgan. Ko'fiy xati naqshin bezak o'rnida foydalanilgan, nasx xati asosan kitob matnlarini ko'chirishda, suls xati – yodgorlik obidalar peshtoq yozuvlari va lavhalarda, tavqi' xati imzoda, riqo' xati maktublarda ishlatilgan. Bu etti hat uslubining xar biri ingichka – xafiy va yo'g'on – jaliy qalamlarda yozilishiga ko'ra, o'n to'rt xil xatni tashkil etadi.

O'tmishda xattotlar qo'lyozmani mohirona ko'chirish uchun ikki xil xatni egallashi kerak edi: biri oddiy mayda – xafiy xat, ikkinchisi yirik – jaliy xat. Xattot matni uch tur xatda, ya'ni oyat, hadislarni “nash”, oddiy matnlarni “nasta'liq”, bob va sarlavxalarni “suls” xati bilan chiroyli qilib ko'chirishi lozim bo'lgan.

Katta hunar va san'at hisoblangan bu soha egalari tarixda xattot yoki kotib nomi bilan mashhur bo'lib, o'z mahoratlarini asrlar davomida takomillashtirib bordilar. Va natijada yozuv va kitob ko'chirishga e'tiborning ortishi tufayli Movarounnahr hududida bir necha

¹¹ <http://islamfond.ru/ru/%D0%B8%D1%81%D1%81%D0%BB%D0%B5%D0%B4%D0%BE%D0%B2%D0%>



xattotlik maktablari vujudga keldi. Ular - Buxoro xattotlik maktabi, Xorazm (Xiva) xattotlik maktabi, Fargʻona (Qoʻqon) xattotlik maktabi, Samarqand xattotlik maktabi va Toshkent xattotlik maktabi edi. Hind xattotlik maktabi esa, asosan Tabriz, Hirot, Buxoro va Samarqand xattotlik maktabi taʼsirida taraqqiy etgan.

Ular orasida Toshkent maktabining oʻrni va ahamiyati beqiyosdir va hozirga qadar uning vakillari xattotlik sanʼati dargʻalari sifatida faoliyat olib bormoqdalar.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Davlatshoh. Tazkirai Davlatshohiy, O'zFASHI, inv № 9272. - B. 237.
2. Soniy Muhammad, Sharq, O'zFASHI, inv. № 1863. – B. 188.
3. Vosifiy. Badoe' ul vaqoe', O'zFASHI, inv. № 1093. – B. 10, 25, 26, 108, 109, 118, 119, 120, 248.
4. A.Murodov Oʻrta Osiyo xattotlik sanʼati tarixidan. – Toshkent: Oʻzbekiston SSR “Fan” nashriyoti, 1971, 195 b.
5. .Muhammad Solih, Tarixi jadidai Toshkent, II tom. – 336.
6. Jomiy “Favoidi Ziyoiya”, O'zFASHI, inv. № 7609.
8. Muhammad Azim, “Mir'od ta'lim”, Toshkent, O'zFASHI, № 7655, 1-2-бетлар.
- 10.<http://islamfond.ru/ru/%D0%B8%D1%81%D1%81%D0%BB%D0%B5%D0%B4%D0%BE%D0%B2%D0%>